L.T.Gilyarovskaya, A.V.Endoviskayalar ta'kidlashicha, "korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to'lovga layoqatlilik ta'minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o'sishina erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi" [5].

A.F.Purtova qarashicha, "korxona moliyaviy barqarorligi - bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko'ra yaxshilangan holatdagi o'sib borishidir[6]".

M.A.Vakulina fikricha, "moliyaviy barqarorlik korxona kelgusi rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo'lmish etarli darajadagi foyda hajmining mavjudligidir[7]".

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili "moliyaviy barqarorlik" tushunchasi mohiyatini tushunishga uch xil yondoshuv mavjudligini ko'rsatdi.

Birinci yondoshuv mazkur tushunchani tor ma'noda tushunishni izohlaydi va xo'jalik sub'ekti moliyaviy holatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin etadi.

Ikkinchi yondoshuv vakillari esa, o'z navbatida, ushbu tushuncha mazmunining talqinida asosiy e'tiborlarini korxona ishchan faolligi va ishonchliliigi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxona hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati bo'lmish moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar.

Va nihoyat, uchinchi yondoshuv vakillari korxona moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'laydilar[8].

Bizning fikrimizcha, kichik va o'rta biznes korxonalari moliyaviy barqarorligi - bu kichik va o'rta biznes korxonalarining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatlilikini saqlay olishga imkon beruvchi moliyaviy holatidir[9].

Umuman, kichik va o'rta biznes korxonalari moliyaviy barqarorligi kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega, shu bois yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini tizimlashtirish, shu jumladan barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini baholash ishlarini tashkil etish zaruriyati kuzatilmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni kamaytirish muammosining global jihatlari

Kambag'allik va qashshoqlik muammosi – asrimizning butunjahon global muammolaridan biri sifatida butun kishilik jamiyatini tashvishlantirib kelayotganligi hech kimga sir emas. Ushbu muammoning hozirgi kunda keskinlashayotganligini asoslovchi ayrim omillarni sanab o'tsak, ular quyidagilardan iborat:

- BMT, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda butun dunyoda o'ta qashshoqlik darajasida yashayotganlar soni 1,2 mlrd. kishini tashkil etmoqdaki – bu ijobiy hal etilishi o'ta qiyin bo'lgan gumanitar-iqtisodiy muammo bo'lib, nafaqat millatlararo, balki xalqaro tabaqalashuv tahdidlarining ham kuchayishiga olib keladi. Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik iqtisodchi Dj. Stiglis ta'kidlaganidek, "Dezintegrasiyalashgan jamiyatda, "qashshoqlik va kambag'allik ayniqsa, uzoq muddatli istiqbolda vertikal mobillikning pasayishiga "xizmat qiladi" va butun aholining mehnat unumdorligini pasaytiradi";

-kambag'allik va qashshoqlik darajasi dunyo bo'ylab taqsimlanishi va uning ko'lamining notekisligi (Afrika qit'asi mamlakatlarida uning darajasi sezilarli va qamrovi kengligi, rivojlanayotgan davlatlarda rivojlangan va Evropa Ittifoqi davlatlaridagiga nisbatan jiddiy tafovutlar mavjudligi va h.k.) ga qaramasdan mazkur muammo har qanday mamlakatni tashvishlantiruvchi salbiy oqibatlar bilan tajovuz qilayotganligi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha o'rtacha kashshoq aholi ulushi kamayish tendensiyasiga ega. Agar 1990 yilda qashshoq aholi hisoblangan kunlik daromadi 1,9 AQSh dollariga teng bo'lgan aholi 40 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etdi (kunlik daromad o'rtacha darajadan yuqori mamlakatlar uchun kishi boshiga kuniga 5,5 dollar, kunlik daromad o'rtacha darajadan past mamlakatlar uchun kishi boshiga kuniga 3,2 dollar). 2030 yilda uni 3 foizli darajadan oshmasligini ta'minlash vazifasi qo'yildi. Shu bois rivojlangan davlatlarda ham kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan Davlat Dasturlari doimiy tarzda qabul qilinib va ijrosi qattiq nazorat qilib kelingan. 2020 yilda Jahon banki dunyoning qashshoq mamlakatlari uchun 82 mlrd. AQSh dollari, shundan Afrika davlatlari uchun 53 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilganini e'lon qildi. Evropa Ittifoqi davlatlarida 2015 yilda 500 mln aholidan 85 mln. i yoki 16,8 foizi qashshoqlik chegarasidan pastda yashab kelayotgani, ushbu daraja Bolgariyada – 49 %ni, Ruminiyada – 42 %ni, Latviyada – 37 %ni tashkil etayotganligi e'lon qilindi. "Evropa-2020" strategiyasida kambag'allikni 20 mln. kishiga kamaytirish vazifasi belgilangan edi;

-jahon miqyosida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida uning natijadorligini oshirish, iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo'naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan o'rta va uzoq muddatli dastur va konsepsiyalarining qabul qilinganligi va ularda kambag'allikni kamaytirish masalasiga alohida urg'u berilganligi. Masalan, «BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish Dasturi», "Jahon bankining 2030 yilgacha rivojlanish Konsepsiyasi", "Rossiya Federasiyasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining 2030 yilgacha bo'lgan Konsepsiyasi", Qozog'iston Respublikasining 31 yanvar 2017 yilda Prezident Murojaatnomasida qabul qilingan "Strategiya 2025" o'rta muddatli va "Qozog'iston-2050" uzoq muddatli Strategiyasi shular jumlasidandir.

Kambag'allikni kamaytirish samarali tadbirlari yuzasidan Qozog'iston Respublikasi tajribalari.

Kambag'allikni kamaytirish samarali tadbirlari yuzasidan aynan Qozog'iston Respublikasi tajribalarini o'rganish zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

-mamlakatda 2002-2024 yillarda aholi kambag'al qatlamlari soni deyarli 8,8 martaga kamayishiga erishilgani;

-2015 yil 29 sentyabrda Vashingtonda BMT Bosh Assambleyasidagi Prezident N.Nazarboev nutqida mamlakatda kambag'alliklikni kamaytirish ishlaridagi mamlakat yutuqlari baralla aytilgani, Markaziy Osiyo va dunyoda ushbu masalada zarur bo'lsa Qozog'istonning yordam bera olish uchun imkoniyatlari mavjudligining ta'kidlanishi;

-2015-2017 yillarda mamlakatda kambag'allikni aniqlash mezonida kunlik daromadning \$1,9 dan \$5,5 ga almashishini ta'minlovchi iqtisodiy o'sish va imkoniyatlarning yaratilganligi;

-31 yanvar 2024 yildagi Prezident Murojaatnomasida mamlakat 2025 yil darajasidagi istiqbol ko'rsatkichlariga 2022 yilda erishib bo'lganligini rasman e'lon qilinganligi;

-mamlakatning "Strategiya 2025" o'rta muddatli va "Qozog'iston-2050" ("Kelajakni qurish uchun ko'prik. Yangi reallik sharoitida "rivojlangan mamlakatlar 30ligi ligasi"ga yo'l") nomli uzoq muddatli rivojlanish Strategiyasida kambag'allikni kamaytirish samarali tadbirlari yuzasidan aniq vazifalar qo'yilganligi;

- rivojlanish strategiyasining mazkur hujjatlari tayyorlanishida etarli asoslar ishonchililigining ta'minlanganligi (2024 yilda 70ta mahalliy va 20ta xalqaro ekspertlarni, 10ta milliy ekspert tashkilotlari va 26ta xalkaro ekspert



tashkilotlari jalb etilgan holda mamlakat rivojlanishi joriy holatining diagnostikasi o'tkazilganligi, mamlakatning 6ta hududida aholi bilan 10ta fokus-guruh tuzilib ish yuritilganligi, dunyoning 100 ta megatrendi va 3ta global rivojlanish ssenariylari o'rganilganligi, Qozog'iston bilan taqqoslasa bo'ladigan 6ta mamlakatning iqtisodiy o'sish strategiyalari batafsil o'rganilganligi, 5 ta xalqaro tashkilotdan maslahatlar olinganligi, 2ta Ekspert Kengashining, "Astana iqtisodiy forumi" doirasida davra suhbatining, hududlarda yig'ilishlarning va ommaviy muhokamalarning o'tkazilganligi, hujjat loyihasiga ekspertlar, xalqaro tashkilotlar, milliy kompaniyalar va davlat organlari tomonidan 630 dan ziyod taklif-tavsiyalar berilganligi va ularning 80 foizidan ko'pining inobatga olinganligi).

Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni kamaytirish masalasini hal etish asoslari.

1-jadval. Hozirgi sharoitda Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi davlatlari iqtisodiy platformasida kambag'allikni kamaytirish muammosi qiyosiy tahlili

T/r	Tegishli asos yoki tadbir nomi	Qozog'iston Respublikasi	O'zbekiston Respublikasi
1.	Aholi soni, mln.kishi	18,8	34,0
2.	Jon boshiga aholi real daromadlari	99 975 tenge yoki \$278	1,84 mln.so'm yoki \$204
3.	Aholi jami sonida qashshoq (kambag'allik darajasidan past aholi soni va ulushi)	796 ming kishi yoki 7 foiz aholi (kunlik daromad \$5,5)	4-5 mln.kishi yoki 12-15 foiz aholi (kunlik daromad \$1,9)
4.	Daromadi yuqori 10 foiz aholi va daromadi past 10foiz aholining daromadlar nisbati (aholi daromadlarining desil koeffisienti)	29 marta (Jaxon banki ma'lumotiga ko'ra me'yoriy daraja 7dan oshmasligi lozim bo'lgani holda rivojlangan mamlakatlarda 4,8 martani Iktisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti a'zolari bo'lgan mamlakatlarda 10 martani tashkil etadi)	6,1 marta
5.	Keng ko'lamli, siyosiy tus olgan ijtimoiy iqtisodiy masala sifatida kambag'allikni kamaytirishning qo'yilishi	2015 yil 29 sentyabrda Vashingtonda BMT Bosh Assambleyasidagi Prezident nutqi	2020 yil 24 yanvar kuni Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
6.	Davlat iqtisodiy strategiyasining kambag'allikni kamaytirishga munosabati jiddiyligining asoslanganligi sababi	Sinov va inqiroz bilan bog'liq keskin vaziyatlarga Kirgiziston, Turkmaniston kabi chidamli va barqarorligi	Tojikiston kabi birmuncha dinamik o'sishning xosligi (oxirgi 10 yilda YalM yillik o'sishi barqaror sur'atlarining birmuncha yuqoriligi)
7.	Kambag'allikni kamaytirishning o'rta va uzoq muddatli vazifalari ko'zda tutilgan Hukumat qarori yoki hujjati	31 yanvar 2017 yilda Prezident Murojaatnomasida qabul qilingan "Strategiya 2025" o'rta muddatli va "Qozog'iston-2050" uzoq muddatli Strategiyasi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-son Farmoni
8.	Kambag'allikni kamaytirishning o'rta muddatli vazifasi	2050 yilga kuchli 30 talikka kirish Jon boshiga yillik YalM 2016 yilgi \$26048 o'rniga 2025 yilda \$46100 ni tashkil etadi	Daromadlar darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan jahon mamlakatlari guruhiga kirish, aholi daromadlari o'sishini va kambag'allikni ikki baravar qisqartirish. Jon boshiga yillik YalM 2018 yilgi \$1533 o'rniga 2030 yilda \$4538 ni tashkil etadi
9.	2020 yilda Hukumat tomonidan kambag'allikni kamaytirishga ajratilgan mablag' miqdori	1,2mlrd. AQSh dollari	700 mln. AQSh dollari



Xalqaro tajriba asosida mamlakatimizda kambag'allikni kamaytirish tadbirlari samarali ijrosini ta'minlash Kambag'allikka ilm-fanda aniq ta'rifu tavsiflar berilgan. Busiz ham mazkur tushuncha nimani anglatishini hamma biladi. Lekin masala shuki, ushbu muammo nega endi kun tartibiga chiqdi? Jumladan, O'zbekistonda bu muammoga qarshi kurashish nima uchun shunchalar dolzarb bo'lib qoldi?

Sir emas, yurtimizda kambag'allik ko'p yillar davomida "yopiq mavzu" bo'lib keldi. Bu kategoriyani o'rniga dardimizni azbaroyi xaspo'shlash uchun "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik" degan tushunchalardan foydalandik. Oqibatda kambag'allik iskanjasi haqiqatda kamayib qolmadi va ostonamizdan butunlay yo'q bo'lib ketmadi.

Shukrki, xalq bilan muloqotning bugungiday samarali tizimi haqiqiy ahvolni ko'zgudagiday namoyon etdi. Odamlarning aslida qanday hayot kechirayotgani, ularning eng og'riqli nuqtalari oshkor bo'lib qoldi.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, hozirgi kunda hududlarimizda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining aksariyat qismi etarli daromad manbaiga ega emas. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi singari bizda ham kambag'al qatlam mavjud. Ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ham rost. Bu 4-5 million nafarga teng aholi degani! Qarang, ana shu yurtdoshlarimizning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmas ekan.

Ana shularni inobatga olgan holda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev masalani kuyunchaklik bilan kun tartibiga olib chiqdi, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yuzasidan mutasaddilarga kechiktirib bo'lmas topshiriqlar berdi.

ЎЗБЕКИСТОНДА КАМБАГАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ УЧУН ТАКЛИФЛАР



Аҳолининг турмуш даражасини ошириш ва мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг энг муҳим устуворлиги сифатида ишсизлик даражасини пасайтиришга эътиборни кучайтириш лозим.



Нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорликда одамларимизни тadbirkorlikka ўқитишнинг энг илғор дастурларини ишлаб чиқиш ва касбга ўқитишда нодавлат ташкилотларнинг фаоллигини кучайтириш.



Фуқароларнинг оилавий бюджети даромадларини оширишнинг энг самарали шаклларида бири сифатида касаначилик меҳнатини ривожлантириш керак.



Ишга жойлашишга муҳтож шахсларга касбий тайёргарлик, қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизимини кенгайтириш, бозор эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда мақбул шарт-шароитларни яратишга йўналтирилган чоралар кўриш.



Аҳолининг реал пул даромадлари ва харид лаёқатини ошириш, бунинг учун иш ҳақи, пенсия, стипендия ва ижтимоий нафақаларни инфляция суръатларидан ошадиган миқдорда ошириш.



Камбағалликдан чиқариш учун ажратилаётган имтиёзли кредитлардан ва аҳоли томорқаларидан мақсадли, самарали фойдаланишда микрокластер тузилмаларини яратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

1-расм. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun takliflar.

O'zbekistonda keyingi 10 yilda mehnat va kichik biznes daromadlarining o'sishi kambag'allikning qisqarishiga olib kelganini inkor qilmaymiz. Ish haqi va biznesdan keladigan daromad manbalari ahamiyati tobora ortishi bilan nafaqalar, ijtimoiy yordam dasturlari va boshqa daromad turlarining roli kamaygani ham



rost. Biroq O'zbekistonning mehnat bozorida sezilarli zaifliklar mavjud. Xalqaro valyuta fondining mamlakatlar bo'yicha so'nggi hisobotida, mehnat zaxirasiga yiliga 500 ming nafar yangi ishchi qo'shilishiga qaramasdan, ish bilan bandlikning qayd etilgan o'sishi va kishi boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hamda xizmatlar hajmining o'sish sur'ati o'rtasida nomutanosibliklar saqlanib qolayotganligi ta'kidlanadi. Ushbu mulohazani yanada rivojlantiradigan bo'lsak, iqtisodiyotda band aholi soniga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlar hajmi, ya'ni mehnat unumdorligi darajasi boshqa rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirganda unchalik ham yuqori bo'lmayotganligidan dalolat bermoqda.

Umumiy rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda mehnat qiladigan aholining 38 foizi norasmiy ish bilan band (43 foizi yoshlar). Bu ishchi kuchining katta qismi rasmiy ijtimoiy sug'urta dasturlaridan foydalanmayotganini anglatadi.

O'zbekiston — aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha daromadga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan (kishi boshiga yiliga o'rtacha 1533 AQSh dollari).

Aslida daromadning o'rtacha darajasi ikki guruhga bo'linadi. Daromadi o'rtacha darajadan past mamlakatlar — kishi boshiga yiliga 1036 — 4085 dollar va daromadi o'rtacha darajadan yuqori mamlakatlar — kishi boshiga yiliga 4086 — 12615 dollar. Birinchi guruhdagi mamlakatlar uchun mezonlar qabul qilingan. Bu o'lchovlar bo'yicha kishi boshiga kuniga 3,2 dollar — kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatkichi. Milliy daromadi o'rtachadan balandroq mamlakatlar uchun kuniga kishi boshiga 5,5 dollar kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatkichidir. Demak, O'zbekiston uchun qashshoqlik chizig'i — kuniga 3,2 dollardan kam pulga yashash degani. Misol uchun, besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so'mdan kam bo'lsa, bu oilani kambag'al, deb hisoblash mumkin.

Ma'lumki, 2018 yildan buyon Jahon banki "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" nomli loyihani amalga oshirib kelmoqda. Mazkur loyiha doirasida "Markaziy Osiyoda tumanlar miqyosidagi qashshoqlik darajasi, o'rtacha iste'mol va aholining o'rta sinfi ko'rsatkichlari" bo'yicha hisobot tayyorlandi. Unda kambag'al va o'rta sinf aholi yashaydigan tumanlar xaritalari butun mintaqa, xususan, O'zbekiston uchun alohida keltirilgan.

Bu orqali, jumladan, kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish yoki mahalliy darajadagi ijtimoiy guruhlar muammolarini hal qilish uchun mablag'lar ajratilishida foydalanish maqsad qilingan. Ana shu tahlillar daromadlar taqsimlanishi omillarini tushunish hamda kerakli choralarni aniqlash va ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Natijalardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonning aksariyat hududlarida qashshoqlik darajasi kuniga 3,2 dollarni tashkil etadi. Bu Markaziy Osiyoning boshqa (Tojikiston, Qirg'iziston) mamlakatlariga qaraganda birmuncha past ko'rsatkichdir. O'zbekistonning ayrim hududlarida daromad notekis taqsimlangan. Kambag'allikning yuqori darajasi Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim tumanlarida kuzatilyapti. O'rta sinf aholining umumiy aholi sonidagi ulushining eng past darajasi ham Samarqand, Surxondaryo, Andijon, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining ba'zi tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Albatta, Prezidentimiz qayd etganidek, kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissiini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak.

Kambag'allik millatning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur etkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida Davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, birinchi navbatda, ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu borada o'ziga mustaqil yordam bera olmaydiganlarni qo'llab-quvvatlovchi faol va ta'sirchan siyosat yuritish, ushbu maqsadlarga jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish katta samara beradi.

Binobarin, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlari faolligini kuchaytirishga ehtiyoj katta.

Kasanachilik mehnat turini rivojlantirish kerak. Bunda zamonaviy mashinalar, uskunalar, xom ashyo va materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratish darkor. Kasanachilarga buyurtmachilar topishiga, tadbirkorlik sub'ektlari bilan kooperasiyasini kengaytirishga ko'maklashish zarur.

Shuningdek, ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda, maqbul shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan choralar ko'rish foydadan xoli bo'lmaydi.

Aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali jon boshiga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, ya'ni mehnat unumdorligini keskin oshirish darkor.



Kambag'allik holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamini qashshoqlikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va aholi tomorqalaridan maqsadli foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Fikrimizcha, mazkur yo'nalishda jahonning ilg'or mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanishimiz kerak. Bu borada, biz, olimlardan ham jonbozlik, faol ilmiy izlanishlar olib borish talab etiladi. Shundagina Prezidentimiz ta'kidlagan metodologiyani yaratish va hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 8 январь 2019 йилдаги №5614-сонли Фармони "Ўзбекистон Республикасини 2030 йилга қадар ижтимоий-иқтисодий комплекс ривожлантириш концепция"си.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги "Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5975-сон [Фармони](#).
3. Бородулина К. Б. Анализ методов оценки финансовой устойчивости и платежеспособности предприятия // Вестник Марийского государственного университета. – 2016. – № 1. – С. 15.
4. Божко В. П. Управление финансовой устойчивостью предприятий / В. П. Божко, С. Ю. Балычев // Экономика, статистика и информатика. Вестник УМО. – 2013. – № 4. – С. 33–37.
5. Гиляровская Л. Т. Анализ и оценка финансовой устойчивости торговых организаций : учеб. пособ. – М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 159 с.
6. Пуртова А. Ф. Исследование подходов к определению финансовой устойчивости // Молодой ученый. – 2014. – № 15(74). – С. 200–203.
7. Вакулина М. А. Анализ теоретических подходов к трактовке сущности понятия «финансовая устойчивость предприятия» // Экономика и социум. – 2016. – № 5(24). – С. 21–27.
8. Батьковский М. А. Методологические основы анализа финансовой устойчивости предприятий / М.А.Батьковский. – Финансы и учет: современная теория, методология и практика: сб. науч. трудов по материалам I международной науч.-практ. конференции 30.06.16 г. – М. : НОО «Профессиональная наука», 2016. – С.68–78.
9. Джамалов Х.Н.К вопросу методов оценки финансовой устойчивости предприятий малого бизнеса и её факторов// Учёный XXI века, международный научный журнал № 3-2 (62), март 2020 г. С.50-59
10. Frantisek Liptak, Slavka Klasova, Viliam Kovac. Special Economic Zone Constitution According to Cluster Analysis. Procedia Economics and Finance. Vol. 27, 2015, Pages 186-193. (<https://www.scopus.com>), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115009880>).
11. Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. Procedia Economics and Finance. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120. (<https://www.scopus.com>), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567116301010>).
12. Chen Shaohua, Ravallion Martin. The Developing World Is Poorer Than We Thought, but No Less Successful in the Fight Against Poverty. Policy Research Working Paper, no. WPS 4703. Washington, World Bank, 2018. Available at: <http://documents.worldbank.org/curated/en/2018/08/11680409/developing-world-poorer-thought-no-less-successful-fight-against-poverty> (accessed 24.07.2019).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
